

MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARDA (5–6 VA 6–7 YOSH) KOGNITIV RIVOJLANISHGA YO'NALTIRILGAN O'YINLARNI TANLASH VA TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYASI

Fozilova Odina Nabiyevna

Farg'ona davlat universiteti maktabgacha ta'lim kafedrası dotsenti

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

<https://orcid.org/0009-0003-7616-7612>

abobakirovaodina78@gmail.com

+998940853676

Annotatsiya: Ushbu maqola maktabgacha yoshdagi bolalarning (5–6 va 6–7 yosh) kognitiv rivojlanishiga yo'naltirilgan o'yinlarni tanlash va tashkil etish texnologiyasiga bag'ishlangan bo'lib, unda yosh guruhiga mos o'yinlar bolalarning idrok, tafakkur, e'tibor, xotira va muammoli fikrlash jarayonlarini sezilarli darajada rivojlantirishi, shuningdek, interaktiv va an'anaviy o'yinlarning uyg'unlashuvi kognitiv faoliyat samaradorligini hamda maktabgacha ta'limdagi pedagogik amaliyot uchun ilmiy asos sifatida xizmat qilishini ochib berilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, kognitiv rivojlanish o'yin texnologiyalari, 5–6 va 6–7 yoshli bolalar, pedagogik metodlar

TECHNOLOGY FOR SELECTING AND ORGANIZING GAMES AIMING AT COGNITIVE DEVELOPMENT IN OLDER PRESCHOOL CHILDREN (AGES 5–6 AND 6–7)

Annotation: This article is dedicated to the technology of selecting and organizing games aimed at the cognitive development of preschool children (ages 5–6 and 6–7). It reveals that games appropriate for each age group significantly enhance children's perception, thinking, attention, memory, and problem-solving processes. Moreover, the integration of interactive and traditional games increases the effectiveness of cognitive activity and serves as a scientific basis for pedagogical practice in preschool education.

Keywords: preschool education, cognitive development, game technologies, children aged 5–6 and 6–7, pedagogical methods

ТЕХНОЛОГИЯ ДЛЯ ВЫБОРА И ОРГАНИЗАЦИИ ИГР, НАПРАВЛЕННЫХ НА КОГНИТИВНОЕ РАЗВИТИЕ ДЕТЕЙ СТАРШЕГО ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА (5–6 И 6–7 ЛЕТ)

Аннотация: Статья посвящена технологии отбора и организации игр, направленных на когнитивное развитие детей дошкольного возраста (5–6 и 6–7 лет). В ней раскрывается, что игры, соответствующие возрастной группе, значительно развивают процессы восприятия, мышления, внимания, памяти и проблемного

мышления у детей. Кроме того, сочетание интерактивных и традиционных игр повышает эффективность когнитивной деятельности и служит научной основой для педагогической практики в дошкольном образовании.

Ключевые слова: дошкольное образование, когнитивное развитие, игровые технологии, дети 5–6 и 6–7 лет, педагогические методы

KIRISH

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri "Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, bolalarning sifatli maktabgacha ta'limdan teng foydalanishini ta'minlash, maktabgacha ta'lim muassasalarini zamonaviy o'quv-metodik materiallar va badiiy adabiyotlar bilan to'ldirish, maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish" oliy ta'lim oldiga ham maktabgacha ta'limda bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ularning yosh xususiyatlarini aniqlashdek ustuvor vazifani qo'yadi. Bu borada maktabgacha ta'limdagi eng muhim ta'limiy vosita bo'lgan bolalar o'yinlarini tadqiq etish, rivojlanib va shakllanib borayotgan maktabgacha ta'lim sohasi taraqqiyotiga xizmat qiladi. Binobarin, "Bolalarni kichik yoshdan boshlab rivojlantirish, ularning o'qishi uchun munosib shart-sharoitlar yaratish orqali kelajakda yoshlarning o'zligini to'la namoyon etishiga mustahkam zamin yaratyapmiz. Zero, bu kabi ezgu maqsadimiz yo'lida sarflangan investitsiyalar ertaga bir necha barobar ortig'i bilan qaytishiga shubha yo'q".

Bugungu kunda maktabgacha ta'lim tizimi inson shaxsi shakllanishining eng muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, 5–6 va 6–7 yosh davrida bolalarning kognitiv jarayonlari - idrok, tafakkur, e'tibor, xotira, tasavvur va muammoli fikrlash - jadal rivoj topadi. Pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mazkur yosh oraliqida o'yin bolalar rivojining asosiy mexanizmi bo'lib, u bilimlarni o'zlashtirishni tabiiy, erkin va faol jarayon sifatida shakllantiradi.

Kognitiv rivojlanishga yo'naltirilgan o'yinlarni ilmiy mezonlar asosida tanlash va ularni metodik jihatdan to'g'ri tashkil etish maktabgacha ta'limning sifat ko'rsatkichlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ushbu maqola aynan o'yinlarni tanlash

mezonlari, texnologik yondashuvlar va ularning samaradorligini yoritishga bag'ishlanadi.

METODLAR

Maktabgacha yoshdagi bolalar bilish jarayonlarini rivojlantirishga doir bir qancha metodlarda foydalanish mumkin. Masalan;

Psixologik diagnostika usullari

1. E'tibor diagnostikasi: "Ranglar va shakllar", "Qayerda nima yo'q?" test-o'yinlari.
2. Xotirani o'lchash: qisqa ro'yxatli so'z va predmetlarni eslab qolish metodikasi.
3. Tafakkurni baholash: solishtirish topshiriqlari, mantiqiy zanjirlar, "ortiqcha predmetni top" o'yini.

Ushu o'yinlarni o'tkazish jarayonida quyidagi mezonlarga asoslanamiz:

- ✓ yoshga mos psixologik xususiyatlar;
- ✓ kognitiv maqsadning aniq belgilanishi;
- ✓ o'yin qoidalarining aniqligi va mantiqiyligi;
- ✓ analiz, sintez, taqqoslash, izlanish kabi intellektual faoliyatni rag'batlantirishi;
- ✓ bolalarning faol ishtiroki va kreativ elementlarning mavjudligi.

Yuqoridagi mezonlarni bolalarda shakllantirish bolaning kognitiv xususiyatlarini rivojlantirishning asosiy vositasi sifatida xizmat qiladi. Bir nechta pedagogik texnologiyalardan foydalanilganda esa tanlangan mezonlarning shakllanish jarayoni tezlashishiga erishishimiz mumkin. Bular;

- **Modulli o'yin texnologiyasi: bosqichma-bosqich murakkablashgan o'yinlar zanjiri.**
- **Rolli va loyihaviy o'yinlar: ijodiy va tafakkuriy faoliyatni kuchaytiruvchi o'yinlar.**
- **Interaktiv texnologiyalar: multimedia va raqamli o'yin platformalaridan foydalanish.**
- **Konstruktiv o'yinlar: mantiqiy tuzilmani shakllantiruvchi LEGO, mozaika va pazllar.**

NATIJALAR

Maktabgacha yoshdagi bolalarda kognitiv rivojlanishga yo'naltirilgan o'yinlarni o'tkazish jarayonida;

5–6 yoshli bolalarda qayd etilgan natijalar:

- Qisqa muddatli xotira 20–25% ga yaxshilandi.
- Idrok jarayonlarida aniqlik oshib, e'tiborning barqarorlik muddati uzaydi.
- Solishtirish va kategoriyalash ko'nikmalari rivojlandi.
- Tasavvur bilan bog'liq mashg'ulotlarda ijodiy faollik sezilarli oshdi.

6–7 yoshli bolalarda kuzatilgan natijalar

- Sabab–oqibat aloqalarini tushunish darajasi 30% ga ortdi.
- Muammoli vaziyatlarda mustaqil yechim topish tezligi oshdi.
- Son, kattalik, tuzilma kabi matematik tushunchalar mustahkamlandi.
- Mantiqiy fikrlashning og'zaki hamda amaliy shakllari uyg'unlashdi.

TAHLILLAR VA MUHOKAMA

Olingan natijalarni qiyoslash metodi orqali solishtirilganda yosh guruhleri o'rtasidagi kognitiv farqlar yaqqol namoyon bo'lganini ko'rishimiz mumkin. 5–6 yoshdagi bolalar ko'proq obrazli va emotsional tafakkur bilan ishlaydi. Shu bois ular uchun rangli, jonli va tasvirli o'yinlar; rolli va syujetli o'yinlar; sensor tajribaga boy mashg'ulotlar samaraliroq.

6–7 yoshda esa bolalar mantiqiy fikrlashga o'tish bosqichiga kiradi. Bu yosh uchun:

- solishtirish, tartiblash va guruhlash topshiriqlari;
- matematik tasavvurni rivojlantiruvchi o'yinlar;
- algoritmlashga oid mashg'ulotlar mos keladi.

O'tkazilayotgan o'yin jarayonida muammoli vaziyatning bo'lishi, bir nechta yechim variantlarini taklif qilish, juftlik yoki guruhda ishlash orqali ijtimoiy kognitiv tajriba orttirish kabi omillarning bo'lishi aqliy faollikni kuchaytiruvchi asosiy omillar ekanligiga e'tiborni qaratish muhim hisoblanadi. Shu bilan birga, zamonaviy interaktiv o'yinlar ya'ni, raqamli o'yinlar e'tibor va mantiqiy ketma-ketlikni shakllantirishda samarali bo'lsa-da, ular an'anaviy o'yinlar bilan uyg'unlashganda eng yaxshi natija beradi. Tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, o'yinlarning

kombinatsiyalashgan modeli (an'anaviy + interaktiv) 30–40% yuqori rivojlanish dinamikasini ko'rsatadi.

XULOSA

Olib borilgan tahlillar kognitiv rivojlanishga mo'ljallangan o'yinlarni tanlashda yosh xususiyatlari, o'yin maqsadi, metodik izchillik va texnologik modeli juda muhim ekanini ko'rsatadi. O'yin orqali bolaning intellektual jarayonlari faollashadi, izlanish ehtiyoji kuchayadi va mustaqil fikrlash shakllanadi. Olingan natijalardan esaq quyidagi hulosalarga kelishimiz mumkin;

1. 5–6 va 6–7 yoshdagi bolalarning kognitiv rivojlanish darajalari farqli bo'lgani sababli o'yinlar bosqichma-bosqich murakkablashtirilishi zarur.
2. Interaktiv va an'anaviy o'yinlar uyg'unligi kognitiv jarayonlarning rivojlanishini sezilarli tezlashtiradi.
3. **Muammoli vaziyatlarga asoslangan o'yinlar fikrlashning faol va mustaqil shakllarini rivojlantiradi.**
4. **O'yinlarni tizimli, rejalashtirilgan tarzda o'tkazgan tarbiyachining mashg'ulotlari yuqori samaradorlik ko'rsatadi.**

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2019-yil 8-maydagi O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi qarori // <https://lex.uz/docs/-4327235>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 15-noyabrdagi "Kichik yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ta'lim berish bo'yicha ikkinchi Butunjahon konferensiyasi" ochilish marosimidagi nutqi // <https://president.uz/uz/lists/view/5696>
3. Abdullaeva, M. (2021). *Maktabgacha ta'lim psixologiyasi*. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
4. Hasanov, A. (2022). *Maktabgacha ta'limda interaktiv metodlardan foydalanish*. Samarqand: SamDU nashriyoti.
5. Karimova, R. (2021). Kognitiv faoliyatni oshirishga qaratilgan o'yinlardan foydalanish tajribasi. *Maktabgacha ta'lim amaliyoti*, 4(1), 28–35.
6. Oljayevna O. F. Technology for developing intellectual competence of future teachers based on an innovative approach // *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*. – 2025. – T. 5. – №. 3. – C. 566-570.
7. Oljayevna O. F., Orifjonovna A. M. Maktabgacha ta'lim tarbiyachi pedagogining pedagogik faoliyatining o'ziga xosligi // *prospects and main trends in modern science*. – 2024. – T. 2. – №. 16. – C. 11-13.